



MTT RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHINING METODOLOGIYASI

Ne'matova Shahnoza Shamsiddin qizi

Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
nematovashaxnoza03@gmail.com

Ilmiy rahbar: p.f.n (dotsent) **M.M.Umarova**

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish metodologiyasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda nutqni shakllantirishning pedagogik asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda samarali metod va usullar yoritilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, ertak va suhbatlar orqali nutqni rivojlantirish yo'llari hamda individual yondashuvga asoslangan innovatsion usullar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, bolalar nutqi, nutqni rivojlantirish, metodologiya, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv.

Annotation: The article analyzes the theoretical and practical aspects of speech development methodology in preschool educational institutions. It examines the pedagogical foundations of speech formation, stages of speech development, and effective methods and techniques. The study highlights ways to develop children's speech through didactic games, interactive methods, storytelling, and conversations, as well as innovative approaches based on individual characteristics. The results are significant for organizing an effective educational process in preschool settings.

Keywords: preschool education, children's speech, speech development, methodology, didactic games, interactive methods, innovative approaches, pedagogical technologies, individual approach

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. Shu bois bu jarayonni samarali tashkil etish uchun mustahkam normativ-huquqiy baza yaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni bir qator qonun va qarorlar asosida olib boriladi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'lim tizimining umumiy prinsiplari, uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish hamda shaxsni har tomonlama rivojlantirish vazifalarini belgilaydi. Ushbu qonunga muvofiq, maktabgacha ta'lim bosqichida

bolalarning nutqiy rivoji ularning intellektual rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, ularning og’zaki nutqini boyitish, to’g’ri talaffuz qilish ko’nikmalarini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi qarorida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan yangi metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish vazifalari belgilangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta’lim tizimini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini belgilab beradi¹. Ushbu konsepsiyada bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni keng qo’llash muhim yo’nalish sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to’g’risidagi qarorida MTTlarda ta’lim sifatini oshirish, bolalarning nutqiy rivoji uchun zarur pedagogik sharoitlar yaratish, o’quv dasturlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Yuqoridagi normativ hujjatlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

- didaktik o‘yinlar orqali nutqni rivojlantirish
- ertak, hikoya va suhbat metodlari
- interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalar
- individual yondashuv asosida mashg‘ulotlar tashkil etish.

O‘yin orqali bolalarda sezgi, idrok, xotira, fikrlash, fantaziya kabi ruhiy jarayonlar, shuningdek, harakter hislatlari, qobiliyat turlari, temperament(mijoz) tiplari rivojlanadi. Bolalarning nutqini, muloqotini, rivojlantirishda kattalar muhim rol o‘ynaydilar. Chunki bolalar hali mustaqil harakat qila olmaydi, ongi yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Bolaning ongini o‘stirish uchun o‘yinchoqlar va o‘yin turlaridan ko‘proq foydalanish yaxshi natija beradi. Ilk bolalik davrida ham o‘yinning ahamiyati katta. O‘yin orqali bolalarda ruhiy xususiyatlar rivojlanadi. Bu davrda bolalar predmetli o‘yinchoqlarni ko‘proq o‘ynaydilar. Ayniqsa, didaktik o‘yinchoqlar bola hayotida muhim o‘rin egallaydi. Bola endi bitta o‘yinchoq bilan emas, balki bir nechta o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi. Bu davrda bolalar kattalar bilan muloqotda bo‘lishga nisbatan ko‘proq o‘yinchoqlar bilan muloqotda bo‘ladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar o‘yinda kattalarning hatti-harakatlari, o‘zaro munosabatlarini taqlid qilish orqali ifodalaydilar². Bu ularda muloqotni rivojlanishiga yordam beradi. O‘yin -bu bolaning atrofdagi voqelikni, uning ob’ektlari va hodisalarini faol ijodiy aks ettirish shakli, lekin bu bola ko‘rgan narsani oddiy nusxalash emas. Maktabgacha tarbiyachi o‘yinga fantastika va fantaziyalarni olib keladi, shuning uchun haqiqat va fantastika o‘yinda bir -biri bilan chambarchas bog‘liq.

¹ Xalq so‘zi gazetasi. <https://xs.uz/uz/post/o‘zbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacharivojlantirish-kontsepsiyasi> -amalda

² <https://supportscience.uz/index.php/oje/article/view/87/78>

Bolalar nutqidagi bu hususiyatni ham mashgʻulotlar jarayonida hisobga olish zarur. Bolalarning nutqlari kattalarning nutqlaridan keskin farq qilinadi: Masalan: “r” oʻrniga “l” yoki “y”, “sh” oʻrniga “s” tovushlarini ishlatishlari kuzatiladi. Nutqi toʻliq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogik mahorat alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarda dastlabki maʼnaviy–ahloqiy tushunchalarni shakllantirish bolaning dastlabki rivojlanish bosqichlaridayoq amalga oshirilishi lozim boʻlgan pedagogik talablardan biri boʻlsa, maʼnaviysifatlar: mehribonlik, toʻgʻrilik, vatanparvarlik, insonparvarlik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, milliy qadriyatlarga hurmat, milliy gʻurur kabi va ahloq–odobga oid sifatlar: ota–onaga hurmat, salomlashish odobi, kiyinish va ovqatlanish odobi, mehnatsevarlik, uyda va jamoat joylarda oʻzini tutish kabi fazilatlarini tarbiyalash jarayoni ham bolalarda nutq zahirasiining yetarlicha rivojlanishini talab etadi. Tevarak-atrof bilan tanishuv jarayonida bola undagi narsa-buyum nomlari va harakat-holatni ifodalovchi soʻzlarni oʻzlashtirib boradi. Bola tomonidan nutqiy funksiyalarning oʻzlashtirilishi jarayoni uning maktabgacha yosh davrida uch bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqich (tugʻilganidan boshlab 9 oylik davrigacha)da goʻdak atrofidagi kattalarning nutqini tushunmaydi va oʻzi ham soʻzlay olmaydi. Biroq bu bosqichda kelajakda shakllanadigan nutqni oʻzlashtirishga zamin hozirlanadi. Tadqiqotlarda mazkur davr noverbal bosqich deb ataladi. Ikkinchi bosqich (9 oydan 3 yoshgacha) - nutqning shakllanish bosqichi sanaladi. Bu davrda bola kattalar tomonidan qoʻllanadigan oddiy, sodda shakldagi nutqiy qurilmzlarni tushunishga harakat qiladi, oʻzi ham dastlabki soʻzlarni talaffuz qila boshlaydi. Uchinchi bosqich 3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu bosqichda bola kundalik hayotda faol qoʻllanadigan nutq birliklarini toʻliq oʻzlashtiradi va ulardan atrofidagilar bilan muloqot jarayonida keng foydalanadi. Bu bosqich nutqiy muloqotning rivojlanish bosqichi hisoblanadi³.

1. **Nutqiy rivojlanishning psixologik-pedagogik asoslari.** Nutq rivojlanishi — bu bolaning idrok, tafakkur, xotira, eʼtibor, emotsional holat va muloqot madaniyatining uzviy bogʻliq boʻlgan murakkab jarayonidir. Bolaning nutqiy koʻnikmalari odatda erta bolalik davrida shakllanadi va bu jarayon koʻproq oʻyin faoliyati, musiqiy mashgʻulotlar va kattalar bilan jonli muloqot orqali amalga oshadi.

2. **Innovatsion yondashuvlarning oʻrni va afzalliklari.** Anʼanaviy metodlar koʻpincha tayyor bilimlarni yetkazishga asoslangan boʻlsa, innovatsion yondashuvlar bola shaxsini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga va muloqotga kirishishga yoʻnaltiriladi. Zamonaviy taʼlim texnologiyalarining nutq rivojiga qoʻshgan hissasi bola faol ishtirokini kuchaytiradi, lugʻat boyligini tabiiy tarzda kengaytiradi, muloqot qilishga boʻlgan ishtiyoqni kuchaytiradi va nutqiy muhitni tabiiylashtiradi. Interfaol metodlar orqali nutqni rivojlantirish.

3. **Interfaol metodlar** — bola faol ishtirok etadigan, nutqiy muloqot jarayonida yangi koʻnikmalarni egallashga imkon beradigan usullardir. Masalan: Soʻz zanjiri, rolli oʻyinlar, rasm asosida hikoya tuzish, savol-javob aylanishi va boshqalar.

³ Сайидирақимова Н.С. Болалар нутқининг фонетик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2000. - № 2. - Б. 75-78; Болалар нутқининг тил онтогенезининг ўрганишдаги ахамияти // История, культура и экономика юга Киргизистана. Ош, 2000. - Т.2. - Б. 73-76; Болалар нутқининг тилшуносликда ўрганилиш тарихи // Тил ва адабиёт таълими. - Тошкент, 2002. - № 4. - Б. 21-23; Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Тошкент, 2004. - 126 б.

4. **Musiqiy-logoritmik mashqlar va ritmik faoliyat.** Musiqa va ritmik mashqlar bolaning nutqiy nafasini, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishini, intonatsiya va ritmni sezish qobiliyatini kuchaytiradi. Logoritmik mashqlar nutqiy markazlarni faollashtiradi, ayniqsa tovush buzilishlari yoki nutqiy kechikishlari bo‘lgan bolalarda samarali bo‘ladi.

5. **Multimedia va AKT vositalaridan foydalanish.** Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) bolalarning nutqiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Rang-barang rasmlar, videolar, audio matnlar va interfaol o‘yinlar bolalarda idrok qilishni kuchaytiradi, ko‘rgazmali obrazlar orqali so‘z boyligini mustahkamlaydi.

6. **Pedagogning kommunikativ kompetensiyasi va metodik yondashuvi.** Nutqiy rivojlanishda tarbiyachi shaxsiy rolining ahamiyati beqiyosdir. U bolaning nutqiy faolligini rag‘batlantiruvchi ijobiy muhit yaratadi, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, mos metodlarni tanlaydi.

Xulosa o‘rnida, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish ularda nutq jarayonini rivojlantirishga uzviy bog‘liq bo‘lib, tafakkur nutqning mahsuli ekanligini hisobga olish zarur. Bu esa MTTda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda umumiy muhim kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy va zarur talabidir. Mana shularni inobatga olgan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o‘stirish ta’limiy faoliyat jarayoni va nutq o‘stirish faollik markazidagi jarayonlar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda olib borilishi zarur. Chunki maktabgacha ta’lim tashkiloti ishiga innovatsiyalarni kiritish maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish va isloh qilishning eng muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ostonov J.Sh. Basic strategies for coping behavior in adolescents. E-Conference Globe 2021/7/26 275-277 c

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori (PQ-3261)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori

6. Alimova, N. (2020). *Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodlari*. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.

7. Usmonova, D. (2019). *Didaktik o‘yinlar orqali nutqni rivojlantirish*. Pedagogika ilmiy jurnali, 3(12), 45–52.

8. Karimov, S. (2021). *Interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta’limda*. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, 6(4), 78–84.

9. <https://supportscience.uz/index.php/oje/article/view/87/78>

10. <https://ec.europa.eu/>

11. <https://www.who.int/>